

## MA`MURIY ISLOHOTLAR VA XAVFSIZ MUHIT: MAHALLA YETTILIGI UCHUN SEMINAR

????Rishton tumani Madaniyat markazida muhim uchrashuv

Bugun Rishton tumani Madaniyat markazida "Mahalla yettiligi" vakillari uchun seminar tashkil etildi. Seminarda Farg'ona viloyati rahbariyati va huquq-tartibot organlari vakillari ishtirok etib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazmun-mohiyati keng yoritildi.

Seminarda mazkur qarorning mazmun-mohiyati, qaror ijrosi doirasida sektor rahbarlari va mahalla yettiligi zimmasiga yuklatiladigan ustuvor vazifala, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi xususida ma'ruzalar tinglandi.

Qayd etilganidek, qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi bilan belgilangan mas'ul idoralar va muassasalar uchun 2025 yilda "Har bir mahallada huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Endilikda, jinoyat sodir etilgan mahallalarda ilmiy tashkilot va ta'lif muassasalari tomonidan ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishlar o'tkaziladi.

Shuningdek, qarorda barcha tuman sektor rahbarlariga, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmati boshliqlariga va ichki ishlar organlari boshliqlari o'rinnbosarlariga 2025 yilda kriminogen vaziyat og'ir mahallalar nomnom biriktirilishi belgilangan.

Seminar yakunida mahalladagi vakillarning mazkur qarordan kelib chiqadigan vazifalari va ularning ijrosi bilan bog'liq savollariga batafsил javob berildi.

2025-01-30 15:50:54